




№06/2025

M

13.00.00 - Pedagogika fanlari
07.00.00 - Tarix fanlari
19.00.00 - Psixologiya fanlari
01.00.00 - Fizika-matematika fanlari
02.00.00 - Kimyo fanlari
03.00.00 - Biologiya fanlari
09.00.00 - Falsafa fanlari
10.00.00 - Filologiya fanlari
11.00.00 - Geografiya fanlari

AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogik, psixometodologik va tabiiy fanlarga
ixtisoslashgan ilmiy jurnal





BOSH MUHARRIR:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Mizayeva Faroxat Odiljonovna – Pedagogika fanlari doktori, dotsent

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik

Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik

Umarova H.O' – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor

Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor

Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor

Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor

Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor

Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Qo'ldoshev Q.M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor

Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)

Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)

Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)

Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)

Wooskyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)

Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)

Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor

Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor

Aliyev B. – falsafa fanlari doktori professor

G'afurov D.O. – falsafa fanlari doktori (PhD)

Somurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti

Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor

Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)

Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent

Tangriyev A.T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori

Ashurov R.R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Panjiyev M.A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari

Xudayberganov N.A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, G. V. Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti Toshkent temir yo'l muhandislari instituti.

EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Mizayeva Farokhat Odiljonovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician
Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician
Umarova H.O'. – Minister of Preschool and School Education of the Republic of Uzbekistan
Qirg'izboyev A.K – Doctor of Historical Sciences, Professor
Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor
Koldoshev K.M. - Doctor of Economic Sciences, Professor
Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor
Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)
Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)
Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)
Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)
Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)
Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)
Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor
Aliyev B. - Doctor of Philosophy, Professor
Gafurov D.O. - Doctor of Philosophy (PhD)
Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor
Mirzayeva F.O. - Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service
Saifnazarov I. - Doctor of Philosophy, Professor
Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)
Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor
Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor
Tangriyev A.T. - is a Professor of Toshkent State University of Economics
Ashurov R.R. - Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology
Panjiyev M.A - First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region
Khudaiberganov N.A. - Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya rayosatining komissiyasining 08.05.2025 yildagi №370/5 qarori bilan Psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), Psixologiya fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy nashrlar ro'yxatiga kiritilganligini ma'lum qilamiz.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo'yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.06.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi
Prezidenti Administratsiyasi
huzuridagi Axborot va ommaviy
kommunikatsiyalar agentligi
tomonidan №C-5669245 reyestr
raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan
o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №095310



MUNDARIJA

O'SMIRLARDA DESTRUKTIV XULQ-ATVOR SHAKLLANISHINI TADQIQ ETISHNING NAZARIY- METODOLOGIK ASOSLARI	6
Umarov Baxriddin Mengboyevich, Jabborova Zilola Baxtiyor qizi ONA VA FARZAND MUNOSABATLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	12
Abdullayeva Dilbar Ubaydullayevna PROFESSOR-O'QITUVCHILAR IMIJINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	17
Jo'rayeva Sohibjamol Norqobilovna OMMAVIY MADANIYATNI BOLALAR XULQ-ATVORIGA TA'SIRINI PSIXOLOGIK SHARTLARI	25
Umarova Navbahor Shokirovna PEDAGOGIK FAOLIYATDA KASBIY SO'NISH JARAYONINING IJTIMOY-PSIXOLOGIK JIHATLARI.....	29
Botirova Dilafrō'z Bozorovna BULLING XULQ-ATVORINING NAMOYON BO'LISHI VA UNING MAKTAB O'QUVCHILARGA BO'LGAN TA'SIRI	35
Tillayeva Nodira Iskandar qizi TASHKILOTDA MOBBING VA UNING XODIMLAR PSIXOEMOTSIONAL SALOMATLIGIGA IJTIMOY-PSIXOLOGIK TA'SIRI	38
Xusanbayeva Ziyoda Maxmutdjon qizi OILAVIY MUNOSABATLARDA YETAKCHILIK MUAMMOLARI	42
Abdumutalova Madina Abdumalik qizi ZO'RAVONLIKKA UCHRAGAN AYOLLARNING IJTIMOY- PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI.....	45
Abdurahmanova Durdona Dilshodjon qizi SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI	50
To'raboyev Azamat Muxamadullayevich BO'LAJAK PEDAGOGLARDA KASBIY MOYILLIKNING NAMOYON BO'LISHIGA TA'SIR ETUVCHI IJTIMOY-PSIXOLOGIK OMILLAR.....	54
Saidova Nargiza Ismatulla qizi PSIXOLOGIYA TALABALARI AMALIYOTI JARAYONIDA KASBIY REFLEKSIYA KO'NIKMALARINI SHAKLLANTIRISH	58
Akbaraliyeva Asilaxon Tojiddinovna	



SHAXSDA KREATIVLIK SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PSIXOLOGIK OMILLARI

To'raboyev Azamat Muxamadullayevich

University of Business and Science

Pedagogika va psixologiya kafedrası stajyor o'qituvchisi

email: turaboevazamat@gmail.com

Annotatsiya. Ta'lim sifatini oshirishda shaxsning kreativ fazilatlarini shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Shu bois, ta'lim tizimida kreativ fikrlashni rag'batlantirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Kreativlik – bu yangi texnologiyalar, g'oyalar, fikrlar va ilmiy izlanuvchanlikni rivojlantirish omili sifatida namoyon bo'ladi. Mazkur maqolada kreativlik tushunchasi, uni rivojlantirishga xizmat qiluvchi metodlar, shuningdek, kreativ fikrlashning ta'lim tizimidagi o'rni va ahamiyati yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, stereotiplar, psixologik ustanovkalar, bilim, ko'nikma, malaka, ijodiy tafakkur, tanqidiy fikrlash, innovatsion yondashuv.

Abstract. The development of a person's creative qualities plays a significant role in improving the quality of education. Therefore, encouraging creativity within the educational system is considered one of the main priorities. Creativity serves as a key factor in generating new technologies, ideas, thoughts, and fostering research-oriented thinking. This article explores the concept of creativity, methods for its enhancement, and the importance of creative thinking in the context of modern education.

Key words: creativity, stereotypes, psychological assumptions, knowledge, skills, competence, creative thinking, critical thinking, innovative approach.

Аннотация: Формирование творческих качеств личности играет важную роль в повышении качества образования. В связи с этим, стимулирование креативного мышления в образовательной системе рассматривается как одна из основных задач. Креативность способствует развитию новых технологий, идей, мыслей и исследовательского подхода. В статье рассматриваются понятие креативности, методы её развития, а также значимость творческого мышления в образовательной среде.

Ключевые слова: креативность, стереотипы, психологические установки, знания, навыки, компетенции, творческое мышление, критическое мышление, инновационный подход.

KIRISH

Mamlakatimizda istiqlolning dastlabki yillaridan boshlab ta'lim-tarbiya tizimini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilib, farzandlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda zamonaviy bilim va kasb-hunarlarni egallashlari, jismoniy va ma'naviy jihatdan yetuk insonlar sifatida tarbiyalanishlarini ta'minlashga katta e'tibor qaratilmoqda. Shu bilan birga, ularning tabiiy qobiliyatlari, iste'dodi va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yoshlar qalbida ona yurtga sadoqat va fidoyilik tuyg'ularini shakllantirish maqsadida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda.

Shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish uchun avvalo ushbu tushunchaning mazmun-mohiyatini anglab olish zarur. Kreativlik ingliz tilidagi "create" (yaratmoq) so'zidan kelib chiqqan bo'lib, insonning yangilik yaratishga, muammolarni original tarzda hal qilishga qaratilgan ijodiy fikrlash qobiliyatini anglatadi. Uning asosida beqiyoslik, amaliylik, noodatiylik va fikriy erkinlik yotadi.

Kreativ fikrlash deganda — muayyan muammoga har tomonlama qaray olish, turli rakurslardan yondashuv, mavjud stereotiplardan chiqib ketish, innovatsion fikrlar ishlab chiqish tushuniladi. Boshqacha aytganda, kreativlik bu — oddiy fikrdan ijodga, odatiy yondashuvdan yangilikka o'tish jarayonidir.

Bugungi kunda muvaffaqiyat va, eng muhimi, shaxsiy qoniqish manbai ko'proq pul yoki texnologiyalarda emas, yangi g'oyalarda mujassam. Aynan ijodiy iqtisodiyot ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish,

savdo va ko'ngilochar sohalarga yangicha hayot baxsh etadi. Kreativlik insonlar yashashni, ishlashni va o'qishni istagan muhitni, ular o'ylaydigan, ixtiro qiladigan va yaratadigan sharoitni tubdan o'zgartiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim sifatini belgilovchi muhim omillardan biri sifatida ijodkorlikning paydo bo'lishi uzluksiz o'zgarishlar jarayonining asosini tashkil etadi. Ijodkorlik yangi texnologiyalar, yangi g'oyalar, yangi fikrlar va izlanuvchanlik sifatining ortishiga xizmat qiladi. Aynan shu sababli ijodkorlikni rag'batlantirish va undan samarali foydalanishga qaratilgan tizimlar shakllandi. Turli ko'rinishdagi ijodkorlikka intilish zamonaviylikning chuqur mazmunini belgilaydi.

Ijodiy mehnatning asosiy xususiyatlaridan biri shundaki, u insonning ichki motivatsiyasi, bilim va tajribasini talab qiladi hamda zamonaviy yo'nalishlarga mos keladi. Bugungi kunda muammolarni ijodiy hal etish quyidagi asosiy shartlarga tayanadi: bilim, tajriba, mehnat, ijodiy fikrlash qobiliyati va shaxsiy motivatsiya.

Ijodiy fikrlash qobiliyati ikki asosiy tarkibiy qismga — tanqidiy fikrlash va ijodkorlikka bog'liq. Tanqidiy fikrlash bu — aniq, izchil va oqilona fikrlash bo'lib, mantiqiy asoslar va ilmiy tafakkur qoidalariga amal qilishni o'z ichiga oladi. Ijodkorlik esa yangi va foydali g'oyalarni ilgari surish, muqobil imkoniyatlarni yaratishdir.

Kreativ fikrlash jamiyat hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan va shaxs tafakkuri bilan uzviy bog'liq jarayon hisoblanadi. Ayniqsa, yosh avlodda ushbu ko'nikmani shakllantirish mamlakat taraqqiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Yoshlarning kreativ fikrlash qobiliyatini rivojlantirish quyidagi omillarga asoslanishi zarur:

Shaxs tarbiyasida bolalikdan boshlab uning fikrini qadrlash va jamoadagi o'z o'rnini anglatish;

Jamiyatda shakllangan dogmatik qarashlardan voz kechish;

Boshqaruvda avtokratik yondashuv o'rniga demokratik uslublarni keng joriy etish;

Kreativ fikrlovchi shaxslarning g'oya va qarashlariga hurmat bilan yondashish va ularni qo'llab-quvvatlash.

Zero, jamiyatda harakatlantiruvchi kuch — liderlardir. Bugungi kunda yetakchilarning aksariyati aynan kreativ fikrlovchi shaxslardir.

Kreativlik shaxsni rivojlantiruvchi muhim kategoriya sifatida inson tafakkuri va ma'naviyatining ajralmas qismi sanaladi. U shaxs egallagan bilimlarning ko'pqirrali bo'lishi bilan emas, balki yangi g'oyalarga intilish, mavjud stereotiplarni isloh qilish va o'zgartirish, hayotiy muammolarga noodatiy va samarali yechimlar topishda namoyon bo'ladi. Ya'ni, mavjud bilimlarni takrorlash orqali kreativlikka erishib bo'lmaydi. Ijodiy fikrlash jarayonida yangi fikr va g'oyaning yuzaga kelishi muhim omildir.

Masalan, ingliz tilida so'zlarni yodlab, grammatikani puxta egallagan bo'lsangiz ham, insho yozishga qiynalsangiz, bu bilimlar yetarli emasligini anglatadi. Demak, ijodiy fikrlash jarayonida tasavvur muhim rol o'ynaydi. Bu fikrni Albert Eynshteyn "Tasavvur — bilimdan muhim" degan iborasi orqali ta'kidlagan. Odatda noodatiy fikrlar, original g'oyalar inson ongiga kutilmaganda keladi. Buning uchun, eng avvalo, fikrlash jarayonidagi bir xillik va odatiylikdan voz kechish zarur.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Inson miyasi o'z faoliyatini "yengillashtirish" va "qulaylashtirish" maqsadida ko'pincha qoliplar hamda stereotiplardan foydalanadi. Stereotiplar — bu ilgari shakllangan va jamiyat tomonidan umumiy tarzda qabul qilingan tayyor fikrlar majmuidir. Ular asosida olib boriladigan fikrlash odatda yangi g'oyalarni yuzaga chiqarmaydi, balki mavjud, odatiy mulohazalarni takrorlaydi.

Qoliplarning shakllanishida jamiyatda ustuvor bo'lgan ijtimoiy fikr, ommaviy axborot vositalarida taklif etilayotgan tasvir va mazmunlar yetakchi o'rin tutadi. Inson, ommadan ajralib qolmaslik istagida, ko'p hollarda boshqalarning fikrlariga qo'shiladi. Chunki "oqim bo'ylab suzish" — ya'ni ko'pchilikka ergashish — mustaqil fikrlashdan ko'ra osonroq tuyuladi. Natijada insonning muayyan mavzu bo'yicha fikri stereotiplarga asoslanib, avvaldan ma'lum ma'lumot va mulohazalarga tayanadi.

Kreativ fikrlash esa buning aksi bo'lib, jamiyat hayotida chuqur ta'sirga ega bo'lgan, innovatsion yondashuvlarning asosi sifatida e'tirof etiladi. Shu bilan birga, u universal va tenglashtiruvchi fenomen bo'lib, har qanday shaxs ma'lum darajada kreativ fikrlash qobiliyatiga ega bo'lishi mumkin.

Amerikalik psixolog D. Veksler kreativlikni quyidagicha ta'riflaydi: "Kreativlik — bu fikrning shunday



turiki, u shaxsdan bir muammo yoki masala yuzasidan birdaniga bir nechta yechim topishni talab qiladi. U shablonli va zerikarli fikrlashdan farq qilib, narsa va hodisalarning mohiyatidagi o'ziga xoslik va noyoblikni anglashga yordam beradi".

Kreativlik insonning fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtirib, uni ijtimoiy hayot va faoliyatda oliy boshqaruvchi kuchga aylantiradi hamda ezgu amallar tomon yo'naltiradi. Bunday ijodkor inson har doim mavjudlik bilan uyg'unlikda harakat qiladi. Fransiyalik faylasuf Anri Bergson bu borada shunday deydi: "Ijod — bu intellektning yuqori bosqichidir".

Shaxsga xos kreativlik sifatlari quyidagilardan iborat:

- Ijodiy yo'nalganlik;
- Mantiqiy fikrlash qobiliyati;
- Eruditsiya (bilimdonlik);
- Boy tasavvurga egalik;
- Ijodiy ta'sirchanlik va tashabbuskorlik;
- O'z ijodkorligini to'la-to'kis namoyon eta olish;
- Refleksiya qobiliyati;
- Hissiyotga boylik;
- Tavakkal qila olish layoqati;
- Tafakkur tezligi;
- Ichki sezgi rivojlanganligi;
- O'ziga xos (original) g'oyalarni ilgari surish qobiliyati;
- Innovatsion qobiliyatga egalik;
- Yuksak badiiy qadriyatlarga egalik;
- Mavjud bilim va tajriba asosida yangi qarorlarni qabul qilish malakasi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Kreativlik — bu ijodga intilish, hayotga ijodiy yondashish, o'ziga doimiy tanqidiy nazar bilan qarash va tahlil qilish deyish mumkin. Hozirgi zamon psixologiya va pedagogika lug'atlariga asoslanib, o'qituvchining kreativligi — uning fikrlari, sezgilari, muloqoti, alohida faoliyat turlarida ijodiy yondashuvi va bilish darajasi sifatida ta'riflanadi.

Shaxsning kreativligi — bu uning qat'iy, chegaralangan yoki sust chegaralangan sharoitlarda har xil original g'oyalarni izlab topish layoqatidir.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqib, shaxsda ijodkorlikni rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- Ijodkorlikni shakllantirish uchun ijodiy muhit yaratilishi kerak.
- Qiziquvchanlik, savollar berish, tajriba o'tkazish va tadqiq qilish orqali ijodkorlik sifatlarini shakllantirish lozim.
- Kitob o'qish, musiqa tinglash, teatr tomosha qilish orqali miyangizni oziqlantiring. O'zingizni yuksak badiiy tajribalarga ochib berish orqali siz ongingizni ijodiy fikrlashga yo'naltirasiz. Aql muntazam badiiy ta'sirlar orqali aloqalar o'rnatadi va tushunchalar shakllantiradi.
- G'oyalar va tushunchalar daftarini tuting. Ilhom eng kutilmagan vaqtlarda kelishi mumkin. Har qanday tasodifiy fikr va tushunchalarni paydo bo'lishi bilanoq yozib boring. Ular kelajakdagi yirik g'oyalar uchun xom ashyo vazifasini bajaradi.
- Xatolardan to'g'ri xulosa chiqarishni o'rganing. "Ijodkorlik — bu o'zingizga xato qilish imkonini berishdir." Har qanday faoliyatda yuzaga keladigan muammolarni oqilona hal etish uchun ijodiy topqirlik zarur. Ijodkorlik ko'pincha sinov va xato usuli orqali rivojlanadi. Siz to'siqlar va muvaffaqiyatsizliklarga qarshi turishga tayyor bo'lishingiz kerak.
- Jismoniy mashqlar bilan shug'ullaning. Tez yugurish, tennis yoki suzish — ijodkorlikni oshirishning samarali usullaridan biridir. Jismoniy faollik natijasida ajraladigan endorfinlar yaxshi his-tuyg'ularni uyg'otadi va miyaga yangi g'oyalarni shakllantirishda yordam beradi. Shunday ekan, divandan tushing va bir oz yuguring.
- Tabiat qo'ynida sokin mulohaza yuriting. Tabiat — bizning eng yaxshi ustozimiz. U bizni yangicha fikrlashga undaydi. Sayr qiling va ko'katlar bag'rida fikr yuritish uchun sokin joy tanlang. Tasavvuringiz kuchayadi va ijodingiz yangilanadi. Inson tinch muhitda bo'lganida g'oyalar osonroq keladi.
- Qisqa dam oling. Stolingizda o'tirib ko'zingizni yuming; bu uyqu va uyg'onish oralig'ida 10–15

daqiqalik muddatdan oshmasin. Bu vaqtda ongsiz ong faollashadi va tabiiy ravishda yangi g'oyalar yuzaga chiqadi.

- Qanday boshlash kerak? "Ijodkorlik — odat tusiga kiradi va eng yaxshi ijodkorlik yaxshi ish odatlarining natijasidir."
- Ilhom izlang. Ish joyingizni aylanib chiqing, muammo bilan bog'liq insonlar bilan suhbatlashing yoki mavjud ehtiyoj va echimlarni aniqlash orqali muammoni hal qiling. Bu jarayon sizning taxminlaringizni shubha ostiga qo'yadi, aniq tasavvur hosil qiladi va to'g'ri yo'lga yo'naltiradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Kreativlik bugungi kunda yoshlar egallashi lozim bo'lgan eng muhim kompetensiyalardan biri hisoblanadi. Ushbu ko'nikma shaxsning faolligi, tashabbuskorligi, yangilikka ochiqqligi va noodatij fikrlash salohiyatini shakllantiradi. Ayniqsa, tez sur'atlar bilan o'zgarib borayotgan, zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangan hozirgi davrda kreativlik nafaqat oddij savodxonlikdan, balki kompleks yondashuv va yuqori darajadagi aqliy faollikdan dalolat beradi.

Bugungi globallashuv sharoitida mehnat bozorida raqobat kuchayib borayotgan bir paytda, yosh avlodning kreativ fikrlash, innovatsion g'oyalar ishlab chiqish va mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Chunki hozirgi davr nafaqat bilimdon, balki tashabbuskor, tezkor, o'zgaruvchan muhitga moslasha oladigan malakali kadrlarni talab qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, kreativlik yoshlarning XXI asr ko'nikmalariga moslashishi, o'z salohiyatini to'liq namoyon etishi va global raqobatbardosh shaxs sifatida shakllanishida hal qiluvchi omillardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mirziyoyev Sh. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik - har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. — Toshkent: O'zbekiston, 2017. —B.104.
2. Adair John. Decision making and problem solving strategies. 2nd.ed. Printed and bound in India by Reblika Press Pvt Ltd, 2010.
3. Allan Piz. Tana tili. G'.G'ulom nashriyoti 2015, -8 b
4. Andrew Pressman. Design thinking a guide to creative problem solving for everyone. Routledge 2 Park Square, Milton Park, Abingdon, Oxon OX14 4RN, 2019.
5. D. I. Muqumova., Yoshlarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish istiqbollari, Published August 10, 2022 | Version pdf
6. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem solving). — Alexandria — Virginia, USA: ASCD, 2014.
7. Guilford, JP (1982). Kognitiv psixologiyaning noaniqliklari: Ba'zi tavsiya etilgan vositalar. Psixologik sharh, 89
8. Helene Edberg. Creative Writing for Critical Thinking. Creating a Discoursal Identity. ISBN 978-3-319-65490-4 ISBN 978- 3-319-6549-1 (eBook). Sodertom University, Stockholm, Sweden, 2018.

Ingliz tili muharriri: Feruz HAKIMOV

Musahhih: Alibek ZOKIROV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin SOBIR O'G'LI

2025. № 6

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali Oliy attestatsiya komissiyasi Toshkent davlat pedagogika universitetining murojaatiga (24-04-2025 y., №11-05-2566/01) ko’ra, psixologiya fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning tadqiqot ishlari yuzasidan dissertatsiyalarining asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro’yxatiga kiritilganligini ma’lum qiladi.

Asos: OAK Pedagogik texnologiyalar va psixologik tadqiqotlar bo’yicha ekspert kengashi tavsiyasi (25-05-2025 y.; №10); OAK Tartib-qoida komissiyasi qarori (07-05-2025 y., №5/6); OAK Rayosatining qarori (08-05-2025 y., №370/5).

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug’bek tumani
Kumushkon ko’chasi, 26-uy.